



TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI SANOAT STATISTIKASI BO'LIMI



TOSHKENT SHAHRIDA 2019 YIL YANVAR- AVGUST OYLARI UCHUN SANOAT MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQARISH SOHASINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

Sanoat mahsuloti hajmi

33 900,5 mlrd.so'mni,
sanoat ishlab chiqarish indeksi 106,6 % ni tashkil etdi.

Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi 15 146,3 mlrd.so'mni va o'sish sur'ati 108,1 % tashkil etdi.


Iste'mol tovarlarining jami sanoat ishlab chiqarish hajmadagi ulushi 44,7 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi – 67,1 %

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2019-yilning yanvar-avgust oylarida Toshkent shahrida faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalari tomonidan 33900,5 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilishiga erishildi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarish indeksi 106,6 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishslash) sanoat hajmi indeksi 106,6 %, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishslash 106,5 %, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash 102,1 % va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish 119,1 % ni tashkil qiladi.

2019 yilning yanvar-avgust oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi % da




- Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishslash (indeks - 106,5 %)
- Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash (indeks - 102,1 %)
- Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish (indeks - 119,1%)

TOG‘-KON SANOATI VA OCHIQ KONLARNI ISHLASH

Iqtisodiy tarmoqlar kesimida o‘rganilganda, joriy yilning yanvar-avgust oylarida Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2171,0 mlrd.so‘mlik mahsulot ishlab chiqarildi va jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotidagi ulushi 6,4 % ni tashkil etgan.

Tog‘-kon sanoatida ishlab chiqarilgan mahsulotlar turi bo‘yicha tabiiy gaz va xom neft qazib olish hajmi o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan 12,0 % ga oshdi va boshqa tog‘-kon sanoati faoliyati esa 1,8 % ga kamaydi.


TOG‘-KON SANOATI VA OCHIQ KONLARNI ISHLASH MAHSULOTLARI



ISHLAB CHIQARADIGAN (QAYTA ISHLASH) SANOATI

2019-yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 29451,2 mlrd.so‘mni va o‘tgan yilga nisbatan ishlab chiqarish indeksi 106,6 %. Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmog‘ining ulushi – 4,9 % ni, o‘rta-yuqori texnologiyali – 24,8 %, o‘rta-quyi texnologiyali – 34,4 %, quyi texnologiyali – 35,9 % ni tashkil etdi.

2019 yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi



O‘z navbatida ishlab chiqaradigan sanoatda o‘tgan yilning mos davriga nisbatan tog‘kon sohasidagi texnik xizmatlar 18,2 % ga, boshqa tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish 16,1 % ga kamaydi.


Shu bilan bir qatorda, elektir uskunalar ishlab chiqarish 29,6 % ga va chiqindilarni to'plash, tozalash va yo'q qilish 25,6 % ga oshdi.

2018 yil yanvar-avgustda
ishlab chiqarilgan

ISHLAB CHIQARADIGAN (QAYTA ISHLASH) SANOATI

2019 yil yanvar-avgustda
ishlab chiqarilgan

OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI



2586673,8
mln.so'm



2018-yil yanvar-avgustga
nisbatan 103,8 % da




2905608,1
mln.so'm

ICHIMLIKLER ISHLAB CHIQARISH



1593363,6
mln.so'm



2018-yil yanvar-avgustga
nisbatan 115,6 % da



2037011,3
mln.so'm

TAMAKI MAHSULOTLARI



31144,4
mln.so'm



2018-yil yanvar-avgustga
nisbatan 206,8 % da



61836,8
mln.so'm

2018 yil yanvar-avgustda
ishlab chiqarilgan

ISHLAB CHIQARADIGAN (QAYTA ISHLASH) SANOATI

TEKSTIL MAHSULOTLARI



1515929,8
mln.so'm



2018-yil yanvar-avgustga
nisbatan 100,3 % da

2019 yil yanvar-avgustda
ishlab chiqarilgan



1776486,7
mln.so'm

FARMATSEVTIKA MAHSULOTLARI VA PREPARATLARI



621803,7
mln.so'm



2018-yil yanvar-avgustga
nisbatan 110,7 % da



755653,6
mln.so'm

AVTOTRANSPORT VOSITALARI, TREYLERLAR VA YARIM TIRKAMALAR



169631,7
mln.so'm



2018-yil yanvar-avgustga
nisbatan 108,0 % da



230596,8
mln.so'm

SUV BILAN TA'MINLASH, KANALIZATSIYA TIZIMI, CHIQINDILARNI UTILIZATSIYA QILISH.


Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar 559,9 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan mahsulotlari hajmining 1,7 % ni) tashkil etganligi kuzatildi.

Bunda 2019-yil yanvar-avgust oylarida suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 19,1 % ga ko'paygan.

ISTE'MOL TOVARLARNI ISHLAB CHIQARISH

Bozor iqtisodiyoti sharoitida iste'mol tovarlari va xizmatlar bozorini rivojlantirish hamda takomillashtirish ustuvor vazifalardan biri sanaladi. Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishni qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida joriy yilning yanvar-avgust oylarida Toshkent shahridagi sanoat korxonalarini tomonidan 15146,5 mlrd. so'mlik iste'mol tovarlari ishlab chiqarildi va 2018-yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 108,1 % ni tashkil etdi. Umumiy sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishdagi ulushi 44,7%.

2019 yilning yanvar-avgust oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari % da






ISTE'MOL TOVARLARINI ISHLAB CHIQARISH

Oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish 3891,0 mlrd.so'mni tashkil etib, jami iste'mol tovarlaridagi ulushi 30,3 %, nooziq ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish 8491,7 mlrd.so'm, jami iste'mol tovarlaridagi ulushi 66,1 %, alkogol mahsulotlarini ishlab chiqarish 542,0 mlrd.so'm hisoblanib jami iste'mol tovarlaridagi ulushi 3,6 % tashkil etdi.


2019 YILNING YANVAR-AVGUST OYLARIDA TUMANLARNING JAMI ISTE'MOL TOVARLARI ISHLAB CHIQARISH HAJMIDAGI ULUSHI % DA

Toshkent shahar iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmida eng ko'p ulush Chilonzor (shahar iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmining (11,3 % ulushini), Yashnobod (11,2 %) Bektemir (11,2 %), Olmazor (10,7%) va Mirzo Ulug'bek (9,3 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda. Shu bilan birga eng kam ulush Yakkasaroy (6,6 %), Yunusobod (7,0 %) va Uchtepa (7,4 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.





**2019 YILNING YANVAR-AVGUST OYLARIDA HUDUDLARDA ISTE'MOL
TOVARLARNI ISHLAB CHIQARISH HAJMIDAGI ULUSHI % DA**



Shu o'rinda iste'mol tovarlari ishlab chiqarishda eng yirik o'sish suratlari Bektemir (119,7%), Chilonzor (110,8 %) va Yunusobod tumanlarida (108,2%) kuzatilgan. Eng kam o'sish sur'atlari esa Olmazor (103,9%), Mirzo Ulug'bek (105,3%) tumanlariga to'g'ri keladi.



HUDUDLARNING SANOAT ISHLAB CHIQARISHI

Toshkent shahrida sanoat korxonalarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar hududda ishlab chiqarish hajmi va sifatini yuksaltirishga xizmat qilmoqda. Toshkent shahri sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko‘p ulush Mirobod (Toshkent shahri sanoat ishlab chiqarish hajmining 14,3 % ulushini), Yashnobod (12,5 %), Mirzo Ulug’bek (10,4 %), Bektemir (10,0 %) va Shayxontohur (9,5 %) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keladi.

Shuning bilan birga eng kam ulush Yakkasaroy (5,5 %), Uchtepa (5,7 %), Chilonzor (6,3 %) tumanlariga to‘g‘ri keladi.

2019 YILNING YANVAR- AVGUST OYLARIDA HUDUDLARNING JAMI SANOAT ISHLAB CHIQARISH HAJMIDAGI ULUSHI % DA





SANOAT ISHLAB CHIQARISHDA KICHIK BIZNESNING ULUSHI

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2019-yilning yanvar-avgust oylarida Toshkent shahrida sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi – 67,1 % ni tashkil etgan.

Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulush Olmazor (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 89,5 %), Yunusobod (86,4 %), Chilonzor (86,4 %) va Uchtepa (86,0 %) tumanlarida kuzatildi.

Shu bilan birga, eng kichkina ulush Mirobod (27,1 %), Mirzo Ulug'bek (43,8 %) va Shayxontohur (55,7 %) tumanlarida kuzatildi.

HUDUDLAR BO'YICHA KICHIK BIZNESNING SANOAT MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQARISHDAGI ULUSHI % DA

